

IBN SINO “TIB QONUNLARI” ASARIDAGI XALQ TABOBATIGA OID KASALLIK NOMLARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ZAMONAVIY TIBBIY TERMINOLOGIYADAGI MUQOBILLARI

Kodirova Maftunabonu Muhammadqobul qizi

ADTI Akademik Litseyi

Ingliz tili fani o‘qituvchisi

E-mail: maftunabonukodirova@webster.edu

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22638367>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 3-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 5-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida uchraydigan xalq tabobatiga oid kasallik nomlari hamda ularning zamonaviy o‘zbek va ingliz tibbiy terminologiyasidagi muqobillari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy tibbiy terminlarning semantik mazmuni va ularning bugungi tibbiyot tizimidagi nomlari hamda terminologik davomiyligi o‘rganildi. Tahlillar natijasida Ibn Sino qo‘llagan ko‘plab kasallik nomlari bugungi tibbiy terminologiyada saqlanib qolganligi hamda ayrimlari esa zamonaviy ilmiy terminlar bilan almashganligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar:

Ibn Sino, Tib qonunlari, kasallik nomlari, xalq tabobati, tibbiy terminologiya, termin, isitma, falaj, tutqanoq.

Kirish.

Abu Ali ibn Sino nafaqat Sharq, balki jahon tibbiyot ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Uning “Tib qonunlari” asari bir necha asr davomida Sharq va Yevropa tibbiyotida asosiy qo‘llanmalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Asarda kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, belgilari hamda davolash usullari batafsil bayon etilgan. Ayniqsa, xalq tabobati bilan bog‘liq bo‘lgan kasallik nomlari va ularning tavsifi bugungi kun tibbiy terminologiyasi nuqtayi nazaridan alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bugungi global ilmiy makonda tarixiy tibbiy terminlarning zamonaviy terminologiya bilan qiyosiy o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki tibbiyot terminlari nafaqat kasallik nomlarini, balki xalqning tibbiy tafakkuri va ilmiy dunyoqarashini ham aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan Ibn Sino tomonidan qo‘llangan terminlarning zamonaviy ekvivalentlarini aniqlash tibbiy terminologiyaning tarixiy rivojlanishini yoritishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. “Tib qonunlari”da kasalliklar tasnifi keng yoritilgan bo‘lib, ulardan biri isitmalar haqidagi ta’limotdir. Ibn Sino isitmani organizm faoliyatiga zarar yetkazuvchi g‘ayritabiiy harorat sifatida izohlaydi va uning turli ko‘rinishlarini tavsiflaydi. Jumladan, asarda **“bir kunlik isitma”**, **“kuydiruvchi isitma”**, **“kunora tutadigan isitma”** kabi terminlar uchraydi.

Zamonaviy tibbiyotda ushbu terminlarga quyidagi muqobillar mos keladi:

Ibn Sino terminlari	Zamonaviy o‘zbekcha termin	Inglizcha muqobil
Isitma	Isitma	Fever

Bir kunlik isitma	O'tkir qisqa muddatli isitma	Acute fever
Kuydiruvchi isitma	Yuqori haroratli isitma	High fever
Kunora tutadigan isitma	Takrorlanuvchi isitma	Intermittent fever

Ibn Sino isitmalarni nafaqat fiziologik balki ruhiy omillar bilan ham bog'laydi. Asarda g'am, qo'rquv, g'azab, uyqusizlik va tashnalik natijasida yuzaga keladigan isitmalar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Masalan, olim g'amdan bo'ladigan isitma va qo'rquvdan bo'ladigan isitma kabi tushunchalarni alohida ko'rsatadi. Bugungi tibbiyotda bunday holatlar psixosomatik kasalliklar yoki stress bilan bog'liq fiziologik reaksiyalar sifatida izohlanadi. Shundan ko'rinadiki, Ibn Sino kasalliklarning ruhiy omillar bilan bog'liqligini zamonaviy tibbiyot shakllanishidan ancha oldin ta'riflab bergan.

“Tib qonunlari”da uchraydigan muhim terminlardan yana biri falajdir. Ushbu termin bugungi o'zbek tilida ham faol qo'llanadi. Zamonaviy ingliz tibbiyot terminologiyasida uning muqobili paralysis hisoblanadi. Falaj kasalligi Ibn Sino tomonidan harakat funksiyasining buzilishi bilan bog'liq kasallik sifatida tavsiflangan.

Shuningdek, asarda tutqanoq kasalligi ham tilga olinadi. Mazkur birlik xalq tabobatida ham, zamonaviy o'zbek tibbiyot terminologiyasida ham deyarli o'z shaklini saqlab qolgan. Ingliz tilidagi muqobili epilepsy terminidir. Ushbu holat terminologik davomiylikning yorqin namunasi hisoblanadi.

Quyidagi jadval ayrim tarixiy va zamonaviy terminlar o'rtasidagi munosabatni ko'rsatadi:

Tarixiy termin	Zamonaviy o'zbekcha	Inglizcha
Falaj	Falaj	Paralysis
Tutqanoq	Tutqanoq	Epilepsy
Uyqusizlik	Uyqusizlik	Insomnia
Isitma	Isitma	Fever
Tashnalikdan bo'ladigan isitma	Suvsizlanish bilan bog'liq holat	Dehydration-related fever

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim terminlar shaklan va mazmunan saqlanib qolgan. Masalan, isitma, falaj va tutqanoq kabi terminlar bugungi kunda ham tibbiy muomalada ishlatiladi. Boshqa terminlar esa semantik jihatdan saqlanib qolgan bo'lsa-da, zamonaviy ilmiy terminlar bilan ifodalanmoqda. Buni terminologiyaning tabiiy rivojlanish jarayoni bilan izohlash mumkin. Tibbiyot fanining taraqqiyoti natijasida ayrim xalqona terminlar ilmiylashgan, ayrimlari esa aniqroq ilmiy terminlar bilan almashgan. Shunga qaramay, Ibn Sino qo'llagan ko'plab terminlar bugungi o'zbek tibbiy leksikasining shakllanishida muhim manba bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida uchraydigan kasallik nomlarining katta qismi zamonaviy tibbiy terminologiyada ma'lum darajada saqlanib qolgan. Ayniqsa, isitma, falaj, tutqanoq kabi terminlar xalq tabobati va ilmiy tibbiyot o'rtasidagi tarixiy uzviylikni aks ettiradi. Shuningdek, Ibn Sinoning ruhiy holatlar bilan bog'liq kasalliklarni tavsiflashi bugungi psixosomatik tibbiyot qarashlariga yaqin ekanligi aniqlandi. Tarixiy terminlarning zamonaviy o'zbek va ingliz tibbiy terminologiyasi bilan qiyosiy tahlili xalq tabobati terminologiyasining ilmiy asoslarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Natijada, “Tib qonunlari” asari nafaqat tarixiy tibbiyot yodgorligi, balki zamonaviy tibbiy terminologiyaning muhim manbalaridan biri sifatida ham katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Avicenna. (1980). Tib qonunlari (Vol. 4, 2nd ed.). Fan Nashriyoti.
2. Collin, P. H. (2004). Dictionary of medical terms (4th ed.). A&C Black Publishers.
3. Koller, W. (1983). Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Quelle & Meyer.
4. Newmark, P. (1988). A textbook of translation. Prentice Hall.
5. Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating. Brill.
6. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). The theory and practice of translation. Brill.
7. Oxford University Press. (2014). Oxford Learner's Dictionary of Academic English. Oxford University Press.
8. Qosimov, A. (Ed.). (n.d.). Tibbiy terminlar izohli lug'ati (Vol. 3). Sager, J. C. (2004). The structure of the linguistic world of concepts and its representation in dictionaries: Eugen Wüster (1898–1977). Terminology, 10(2), 281–306. <https://doi.org/10.1075/term.10.2.08sag>
9. To'raqulov, Y. (Ed.). (n.d.). Tibbiyot qomusiy lug'ati.
10. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press.